

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori
Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабирижанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурабаев Отабек Джурабаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeve Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



RAQAMLI IQTISODIYOT: MILLIY IQTISODIYOT DRAYVERI

Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Menejment va marketing kafedrası dotsenti



Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi

“Uzauto Motors Powertrain” Aksiyadorlik jamiyati Jamoatchilik aloqalari va ma'muriyat masalalari bo'yicha mutaxassis

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilishi, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etishning iqtisodiy va huquqiy asoslari keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, iqtisodiyot drayveri, elektron hujjat, samaradorlik, raqamli tibbiyot, aqlli shaxar, axborotlashgan jamiyat, investitsiya, raqamli dividendlar kapital, eksport, import, loyiha.

Аннотация: В данной статье представлена экономическая и правовая основа для реализации последовательных мер по развитию цифровой экономики, обмену электронными документами в государственных органах и других организациях, а также постепенному внедрению систем электронной коммерции для предоставления услуг физическим и юридическим лицам.

Ключевые слова: цифровая экономика, драйвер экономики, электронный документ, эффективность, цифровая медицина, умный город, информированное общество, инвестиции, капитал цифровых дивидендов, экспорт, импорт, проект.

Abstract: This article presents the economic and legal basis for the implementation of consistent measures for the development of the digital economy, the exchange of electronic documents in government agencies and other organizations, as well as the gradual introduction of e-commerce systems for the provision of services to individuals and legal entities.

Key words: digital economy, economic driver, electronic document, efficiency, digital medicine, smart city, informed society, investment, digital dividend capital, export, import, project.

KIRISH

Iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmoqda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Axborot-texnologik platformalarda faoliyat ko'rsa-



tadigan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda, bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etmoqda¹.

Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston–2030” va “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotning samarali rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek sanoat tarmoqlari hamda xizmat ko‘rsatishni samarali rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Iqtisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yirik va kichik korxonalar o‘rtasida teng imkoniyatlar yaratadi, bu esa ularning faoliyati samaradorligini oshiradi va sohada raqobatni ta‘minlaydi. Raqamli transformatsiyaning belgilovchi omili uning sur‘ati hisoblanadi. Texnologiya rivojlanishining tezligi va natijasi ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilmaviy o‘zgarishlarning inson hayoti bilan bog‘liqligi rivojlanish tezligida sifatli pog‘onani ko‘rsatish imkonini beradi, bu esa yangi davrga o‘tishni anglatadi.^[1]

Shuningdek, hozirgi kunda jahon mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot hayotning barcha jabhalarini, xususan fan-ta‘lim, sog‘liqni saqlash, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv va boshqa sohaslarini qamrab olgan va samara bermoqda.

2022-yilda jahon yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyot 21 % ni tashkil etdi, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 24% ga yetishi kutilmoqda.^[2] Xitoy o‘z iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyot orqali rivojlantirish yo‘lidan bormoqda, 2022-yilda YalMda raqamli iqtisodiyotning ulushi 36,8 foizni tashkil etdi².

Sh. M. Mirziyoyev “Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q”^[3] deya ta‘kidlab o‘tadi³.

Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning maqsadida qo‘yidagi:

2023-yilda raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirishni nazarda tutgan holda, shu jumladan ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy qilish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatda hisobot yuritishda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish, shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal shakllantirish;

dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik-maydonchalar yaratish orqali “raqamli tadbirkorlik”ni rivojlantirish, 2023-yilga kelib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish vazifalari belgilab^[4] berildi⁴.

Shunday ekan, bunday islohotlarni davom ettirib borish ayni muddao. Yangi islohotlarga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va ishlab chiqarishni raqamlashtirish, ekspertlar hamjamiyati bilan hamkorlikda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasida yangi yo‘nalishlar va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘rganish orqali ularni davlat organlari va tashkilotlarida keng joriy etish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida “aqlli” va boshqa istiqbolli texnologiyalarni, shuningdek, katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlovchi texnologiyalarni joriy etishning konseptual va uslubiy asosi shakllantirildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalari raqamlashtirilsa korrupsiyani kamaytiradi, davlat boshqaruvidagi shaffoflikni ta‘minlaydi, xalq hayotining yengillashishiga, qulaylashishiga xizmat qiladi.

Jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF5349 sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ–3832 sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF–4321 sonli “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.^[5]
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi^[6] (ko‘chirma) Qarori.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, raqamli iqtisodiyotga o‘tish islohotlardagi mantiqiy ketma-ketlikning davomi va drayveri, deb atash mumkin. Raqamli iqtisodiyotni “drayver” sohaga aylantirish, IT xizmatlari ko‘lamini oshirish, xizmat turlarining mobil ilovalarini yaratish doimiy e‘tiborda.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018-yildagi PQ–3832-son

2 Новая инфраструктура как основа экономики. (<https://plus.rbs.ru>)

3 <https://teznews.uz/22-09-2020/shavkat-mirziyoyev-raqamli-iqtisodiyotsiz-mamlakat-iqtisodiyotining-kelazhagi-joq>

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4699-sonli qarori.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to'laigicha hali shakllanmagan va ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon "Yangi raqamli iqtisodiyoti" turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, "postindustrial iqtisodiyot" (D. Bell), "axborotlashgan iqtisodiyot" (O. Toffler), "megaiqtisodiyot" (V. Kuvaldin), "axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot" (I. Niiniluto), "texnoiqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot" (B. Geyts), "bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" (D. Tapskott). Ushbu tushunchalarni bog'lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashtirish jarayonida axborot texnologiyalarining birlamchi o'rinini egallashi bo'lib hisoblanadi.

Fang Zhao, Joseph Wallis, Mohini Singh lar o'z ilmiy qarashlarida "axborot texnologiyalari va hukumat o'rtasidagi munosabatlarga oid adabiyotlar uzoq vaqtdan beri nazariy rivojlanish va yempirik testlarning kamligidan aziyat chekkib kelmoqda, ammo ta'kidlab o'tish joizki raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi mahalliy boshqaruvni ham raqamlashtirishga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Demak raqamlashtirish boshqarishdagi bir qator muammolarni hal qilib berishi mumkin" [7] ligini aytib o'tganlar.

Xitoylik olimlar Enji Li, Qing Chen, Xinyan Zhang, Chen Zhang boshqaruvda raqamli hukumatning rivojlanishi axborot shaffofligini oshirishi, hukumat xatti-harakatlarini tartibga solishi, korxonalar faoliyatlarini nazoratini ta'minlash va hududning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun eng qulay raqamli vositadir" [8] deb keltirib o'tgan.

M. A. Shneps-Shneppe va Namiot D. E. o'zining tadqiqotlarida hududlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali boshqaruvni takomillashtirish, AKT sohasini rivojlanishning asosiy bo'g'ini ekanligi va uning xususiyatlari to'g'risida nazariyalarini tadqiq etib o'tishgan [9].

L. V. Lapidus o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar evolyutsiyasi ta'siri ostida mahalliy boshqaruvda aholini biznesga yo'naltirish, biznes modellarini yaratish nuqtayi nazaridan elektron biznes va elektron tijoratni boshqarish bo'yicha nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [10].

Rossiyalik professor M. L. Kalujskiy fikricha, raqamli iqtisodiyot internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir.

O'zbekistonda akademik S. S. G'ulomov rahbarligidagi iqtisodchilar tomonidan "Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. (S. S. G'ulomov, R. X. Ayupov, O. M. Abdullayev, G. R. Boltaboyeva.), Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. (S. S. G'ulomov, R. X. Ayupov) nomli o'quv qo'llanmalarida [11] raqamli iqtisodiyotga o'tishdagi muammolar va ularning mexanizmiga bag'ishlangan.

Raqamli iqtisodiyot haqida so'z borar ekan, axborotlashgan jamiyatga ta'rif berib o'tish ham o'rinlidir. Akademik S. S. G'ulomov raqamli iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif bergan: Raqamli iqtisod-xo'jalik yuritishning zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishni asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi.

Professor Nodir Jumayevning fikricha – raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Albatta, Blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar ham raqamli iqtisodiyotning bir bo'lagi, lekin raqamli iqtisodiyot deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi. Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan yangi iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Fikrimicha, raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyekti, xizmatlarda axborot texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Agar an'aviy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot va ma'lumotlar hisoblanadi. Demak raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlab, korrupsiyaga qarshi vositasi hisoblanadi. Olimlar bu borada ilmiy izlanish olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, milliy iqtisodiyotni boshqarishda raqamli iqtisodiyotni o'rni va uni takomillashtirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha mahsus yondoshuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

5 S. S. Gulyamov, R. H. Ayupov, O. M. Abdullayev, G. R. Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.



TAHLIL VA NATIJALAR

Xususan, mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ishga tushirilgach, ushbu sohada, shuningdek, davlat boshqaruvida yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Natijada, 2022-yilning-yanvar oyi holatiga ko'ra, davlat xizmatlarining 56 foizi my.gov.uz orqali taqdim etilgan bo'lsa, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni 307 ga yetdi hamda elektron davlat xizmatlaridan 1,3 milliondan ortiq fuqaro foydalangan. Shu bilan birga, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni esa joriy yil boshida 27,2 million yetgan.

Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida respublikaning AKT tizimlari va raqamli infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida sohaga katta miqdordagi investitsiyalar jalb qilindi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2021-yillarda axborot va aloqa sohasida yalpi qo'shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 2021-yilda 11,8 trillion so'mga (1 milliard AQSh dollaridan ortiq) ga yetdi.

Shuningdek, O'zbekistonda IT-parklar tashkil etilgandan buyon sohadagi eksport hajmi 50 barobar oshdi va 46 million AQSh dollariga yetdi. Parkning doimiy rezidentlari soni 147 tadan 500 taga ko'paydi, 300 dan ortiq yangi kompaniya ochildi hamda 8500 ta yuqori haq to'lanadigan ish o'rni yaratildi. Hozirgi kunda IT-parklarda 11 mingdan ziyod yoshlar faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 2017-yildan buyon sezilarli darajada o'sdi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2017–2022-yillarda bu ko'rsatkich qariyb 6 barobar oshib, 2022-yilning-yanvar oyida optik tolali aloqa liniyalarining jami uzunligi 118 ming kilometrga yetdi. Shuningdek, 2017-yildan boshlab xalqaro ma'lumotlar uzatish tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyati 28-martaga o'sib, 64,2 Gbit/s dan 1800 Gbit/s gacha oshdi.

Ta'kidlash joizki, global pandemiya raqamlashtirish va raqamli transformatsiya zaruratini ko'rsatib, IT sohasidagi dolzarb masalalarni bartaraf etish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida O'zbekistonning raqamlashtirish strategiyasi qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktyabrdagi farmoniga asosan "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasi, ^[12] shuningdek, 2020–2022-yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Strategiya ikki dasturni: hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni nazarda tutib, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta'lim va malaka oshirishni rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

"Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim shartlari sohaning moliyaviy ta'minoti va aholining raqamli savodxonligini oshirishdan iborat. Shunday qilib, hujjatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi boshqa tegishli davlat organlari bilan birgalikda 2022-yil oxiriga qadar maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash va umumta'lim maktablarini raqamlashtirish borasidagi ishlar amalga oshirib borildi.

Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston–2030" boshqa milliy strategik hujjatlar va dasturlarda nazarda tutilgan vazifalar, xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha milliy vazifalar hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiyot strategiyasida ham muhim sohalarini raqamlashtirilishga alohida e'tibor qaratilib, davlat xizmatlari, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, yo'l harakati boshqaruvi tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar, bank va qishloq xo'jaligi tarmoqlari va milliy iqtisodiyotning boshqa asosiy sohalariga yangi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan.

Xususan, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, ^[13] elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularning 20 foizini xususiy sektorga o'tkazish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilindi, shuningdek, "Fuqarolarning raqamli pasporti" va "Raqamli idora" loyihalarini amalga oshirish kabi bir qator vazifalar amalga oshirildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish rejalashtirilmoqda.

Shu munosabat bilan raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, 2026-yil oxiriga qadar uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish, bunda dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish, shuningdek, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizgacha oshirish belgilangan. Bundan tashqari, shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va "Aqlli shahar" konsepsiyasi doirasida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.07.2020-yildagi 444-son



Umuman olganda, raqamli texnologiyalar pandemiyadan keyingi tiklanishda, shuningdek, barqaror iqtisodiyotni qurishda markaziy rol o'ynaydi. Shu bois raqamlashtirish va raqamli transformatsiya O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim.

Keyingi yillarda O'zbekistonda AKTni rivojlantirish va raqamlashtirish sohasida, ayniqsa, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishda yuqori natijalarga erishiladi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, Rossiya, Estoniya, Xitoy bilan davom etayotgan hamkorlik bilan bir qatorda, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Singapur, Yaponiya kabi texnologik jihatdan rivojlangan davlatlarni mamlakatning IT-sektoriga jalb qilish, xalqaro hamkorlarning geografiasini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Raqamli ekotizimga, IT infratuzilmasiga va elektron xizmatlarga investitsiyalar milliy iqtisodiyotni yanada modernizatsiya qilish va barcha sohalarda inklyuziv o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotni rag'batlantirish raqamlashtirish va raqamli tijoratni rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni olib tashlashni talab qiladi. AKT rivojlanishi indeksi bo'yicha O'zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 109-o'rinni egallab turibdi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kechiktirib bo'lmaydigan strategiya hisoblanadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagilarni e'tiborga olish talab etiladi.

Respublikada axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni rag'batlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, har sohaga innovatsiyalarni joriy etish va mavjud normativ-xuquqiy va ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish iqtisodiyotni rivojlantirishda davr talabi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish va undan foydalanish borasidagi qonunchilikni yanada rivojlantirish ustuvor yo'nalishga aylanishi kerak. "Raqamli iqtisodiyot" to'g'risida"gi Qonunni qabul qilinishi davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini, shaffofligini ta'minlash va aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashish, ularning biznes faoliyatini faollashtirish mexanizmlarini amalga oshirishga olib kelishi iqtisodiyotning raqamlashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga olib keladi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga amal qilish. Jahon bankining "Raqamli dividendlar" nomli tadqiqoti xulosalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko'rsatadi.^[14] Xususan internet tezligining 10 foizga o'sishi YaIMning o'sishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizga teng. Demak, internet tezligi 2 barobar oshadigan bo'lsa, YaIM hajmi 13–14 foiz ortishiga erishish mumkin⁷. Internet tezligi bo'yicha reytingda O'zbekiston hozirgi kunda 95-pog'onani egallab turibdi (176 ta davlat qatorida) va bir yil ichida 36 pog'onaga ko'tarildi⁸. Raqamli infrastrukturani yanada kengaytirishda keng polosali texnologiyalarga asoslangan uskunalarni o'rnatish va infrastrukturani kengaytirishda qo'shimcha loyihalarni amalga oshirishda nufuzli kompaniyalar bilan shartnomalar tuzish. O'zbekiston hududlaridagi raqamlashtirishning shahar va qishloq aholisiga, aholining boy va kambag'al qismiga nisbatan notekis taqsimlanishi raqamlashtirishni bir xil emasligini keltirib chikaradi. Barcha o'quvchilar va talabalar elektron va distatsion o'qishga imkoniyati bir xil emasligi qisqa muddatli istiqbolda o'quv jarayonida ishtirok etishiga ta'sir ko'rsatadi. Raqamlashtirishdagi tengsizlikni bartaraf etishda va uni ijobiy tomonidan foydalanishda milliy "Raqamli iqtisodiyot" loyihasida xududlardagi raqamlashtirish tadbirlarini amalga oshirilishi global pandemiya sharoitida elektron va masofaviy ta'lim instrumentlaridan ijobiy samaraga olib keladi.^[15]

Axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalarga asoslangan raqamli iqtisodiyot ulushini yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish strategik vazifamiz bo'lishi kerak. 2030-yilgacha axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalariga asoslangan raqamli iqtisodiyot ulushini mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibida 10 foizga (hozirda 2 foiz) ko'tarish kelajakdagi strategik vazifalarimizdan biridir⁹. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha eng ko'p rivojlangan mamlakatlar AQSh va Xitoy tajribasidan foydalanish. Dunyo bo'yicha blokcheyn texnologiyalariga doir patentlarning 75 foizi AQSh va Xitoy kabi davlatlarga to'g'ri keladi¹⁰. Xorij tajribasiga asosan ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy etish, dasturiy mahsulotlardan foydalanish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal rivojlantirish va sohada malakali mutaxassislar tayyorlash va ularni mehnatini amalda joriy etishdir^[17].

7 Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi? (<https://review.uz>)

8 O'zbekiston internet tezligi bo'yicha jahon reytingida bir oy ichida yana 7 pog'onaga ko'tarildi. (<https://review.uz>)

9 Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot odimlari. (<https://tfi.uz/page/ilm-marifat>)

10 Raqamli iqtisodiyot: muammolar va imkoniyatlar (<https://mininovation.uz>)

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Raqamli iqtisodiyotni va kriptovalyutalar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori.
2. Новая инфраструктура как основа экономики. (<https://plus.rbs.ru>)
3. <https://teznews.uz/22-09-2020/shavkat-mirziyoyev-raqamli-iqtisodiyotsiz-mamlakat-iqtisodiyotining-kelazhagi-joq>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-4321 sonli "Raqamli iqtisodiyot va "Elektron hukumat" tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ4699-sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (ko'chirma) Qarori.
7. Fang Zhao Joseph Wallis Mohini Singh, (2015), "E-government development and the digitaleconomy: a reciprocal relationship", Internet Research, Vol. 25 Iss 5 pp. 734 – 766 https://www.researchgate.net/publication/283102868_E-government_development_and_the_digital_economy_a_reciprocal_relationship
8. Li, E. ; Chen, Q. ; Zhang, X. ;Zhang, C. Digital GovernmentDevelopment, Local Governments'Attention Distribution and EnterpriseTotal Factor Productivity: Evidencefrom China. Sustainability 2023, 15,2472. <http://dx.doi.org/10.3390/su15032472>
9. Шнепс-Шнеппе М.А., Намиот Д.Е. Цифровая экономика: телекоммуникации – решающее звено. –М: Горячая линия. –Телеком, 2018. –150 стр.
10. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. – М.:ИНФРА-М,2018.–381 с.
11. S. S. Gulyamov, R. H. Ayupov, O. M. Abdullayev, G. R. Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. O'quv qo'llanma.T. : TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni.
13. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-iyuldagi "Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 444-son qarori.
14. Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi? (<https://review.uz>)
15. O'zbekiston internet tezligi bo'yicha jahon reytingida bir oy ichida yana 7 pog'onaga ko'tarildi. ([https://review. Uz](https://review.Uz))
16. Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot odimlari. ([https:// tfi. uz page. ilm marifat](https://tfi.uz/page.ilm.marifat))
17. Raqamli iqtisodiyot: muammolar va imkoniyatlar (([https:// mininnjvation.uz](https://mininnjvation.uz)))

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.